

AHOLINING HUQUQIY MADANIYATI VA HUQUQIY ONGINI YUKSALTIRISH BUGUNGI KUNNING ZARURIY TALABI .

Shrazov Adilbay Shamshetdinovich

*Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogic
mahorat markazi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada huquqiy davlat qurishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni kattaligi va buning uchun avvalo har bir shaxsning huquqiy immunitetini, huquqiy savodxonlik darajasini yaxshilash masalalari ko'rsatib o'tilgan.*

Tayanch so'zlar: *davlat, huquq, qonun, huquqiy-madaniyat, partiya, shaxs, farmon, jamiyat, demokratiya,*

Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va imon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg'usini, qonunlarni bilish va unga qat'iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo'lib kelmoqda.[1]

Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasiga ta'rif berish muammosining dolzarbligi uning tadkik,ot predmeti kup tomonlama-strukturali huquqiy kategoriya sifatida murakkabligi bilangina emas, balki konuniylik, huquqiy -tartibotni mustaxkamlash,yoshlarning tugri xulkatvorini shakllantirish va ularni huquqiy tarbiyalash borasidagi faoliyatni ta'minlash uchun boshlanshch tushunchalari anik, ta'riflashning ahamiyati bilan xam belgilanadi.

Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti - bu qonunlarning so'zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so'zsiz bajarilishi har bir shaxsning o'z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog'liqdir[2] Avvalo huquqiy ong va huquqiy madaniyatga olimlar tomonidan berilgan turlicha ta'riflar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi, jumladan, professor Islomov huquqiy ongga shunday ta'rif beradi: "Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin".[3] Mamlakatimizda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash

borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Professor Dmitrievning ta'rificha: "Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari yig'indisidir"[4] Huquqiy madaniyatga berilgan ta'riflarga kelsak, U.Tajixanov va A.Saidovlar o'zlarining Huquqiy madaniyat nazariyasi nomli kitobida huquqiy madaniyatga shunday ta'rif berishadi: "Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz"[5]

Yoshlarning huquqiy oni va madaniyati tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglab yetgandagina o'zlarining huquq va majburiyatlarini tushunib boradi. Huquqiy ong-bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lib, kishilarning huquqqa va qonunchilikka, huquq tartibotiga va boshqa huquqiy hodisalarga bo'lgan g'oyalar, his tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisi.

Shuningdek jamiyatda huquqiy strukturasida huquqiy madaniyat hodisasi, huquqiy hayotning darajasi alohida o'rin tutadi. Huquqiy madaniyat-bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishdir. Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqiy madaniyat jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo'ylik va mamlakatda huquqiy-tartibot muhitini o'rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi.

Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini ifoda etishi jamiyatda huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari konstitutsiyamizda belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 36-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun belgilanadi.

"O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

Pedagogik nuqtayi nazardan, huquqiy madaniyat shaxsning axloqiy kamoloti bilan uzviy bog'liq bo'lib, u faqat bilim berish orqali emas, balki tarbiyaviy ta'sir, ijtimoiy faoliyat va hayotiy tajriba orqali shakllanadi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarining 8–11-sinf bosqichida o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish kelgusida ularning faol fuqarolik pozitsiyasini belgilab beradi. Shu bois, umumta'lim maktablarida huquqiy madaniyatni shakllantirish pedagogik jarayonning maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan holda tashkil etilishini talab etadi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoatkorlik tuyg'usining rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi kunda ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda, shu maqsadda fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, ta'lim-tarbiyasi, huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol avlod etib tarbiyalash asosiy maqsad va vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyatda o'z huquqlarini biladigan va qonun qoidalariga so'zsiz rioya etadigan fuqarolar huquqiy davlatning asosidir.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023jil.
1. S.S. Alekseev Qonunchilikning sifati va fuqarolarning huquqiy faolligi ifodasi
2. Nersesyans V.S. Huquqiy ong va amaliyot
3. Xarlamov I.F. Tarbiya va xulq-atvor
4. Yo'ldoshev N.J. Ma'naviy-axloqiy jihat
5. Abdullayev, Sh. Huquqiy madaniyat va maktab ta'limining ahamiyati. Toshkent: "Fan va ta'lim", 2020.
6. Nazarov, I. Pedagogik texnologiyalar va huquqiy ta'lim. Toshkent: "Ta'lim metodikasi jurnali", 2019.
7. Кдоанг Таджиханов У.: Научно-теоретические проблемы правовой культуры: Автореф. дисс. док. юрид. наук. - Ташкент, 1995. - 4-9-бетлар.